

## **DAVLAT XARIDLARINI AMALGA OSHIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

**Xaytboyev A.Q**

*O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi*

*"Biznesni boshqarish" magistratura mutaxassisligi magistranti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada davlat xaridlari va uni amalga oshirishning obyektiv zaruriyati, mavjud imkoniyatlari va o'ziga xos xususiyatlari yoritib berilgan.

**Аннотация.** В данной статье описаны объективная необходимость, имеющиеся возможности и особенности государственных закупок и их осуществления.

**Abstract.** This article describes the objective necessity, available opportunities and specific features of public procurement and its implementation.

**Kalit so'zlar.** Xarid, davlat xaridlari, ehtiyoj, tovar, xizmat.

**Ключевые слова.** Покупка, государственные закупки, потребность, товар, услуга.

**Key words.** Purchase, public procurement, need, goods, service.

Ma'lumki, davlat xaridlari tovarlarni yetkazib berish, ishni bajarish yoki davlat ehtiyojlari uchun xizmatlar ko'rsatish to'g'risidagi shartnomalar bo'lib hisoblanadi. Bu shartnomalar kim oshdi savdolari orqali amalga oshiriladi va tenderlar yoki tartib yordamida amalga oshiriladi. Davlat xaridlari tovar ishlab chiqaruvchisi va vositachi (diler va distrib'yutor) bilan shartnomaga tuzishga asoslanadi. Bu holatda har bir yuridik shaxs yetkazib beruvchi bo'lishi mumkin. Biroq, har bir davlat institutlarining resurslari doimo cheklangan bo'ladi. Bu holatda budjetni tuzishda davlat budjeti siyosatining strategik maqsadi va vazifalarini ifodalovchi ustuvor yo'nalishlarni hisobga olish lozim. Ushbu maqsadlar uchun ko'pincha davlat xaridlari qo'llaniladi. Bu davlat xarajatlarini amalga oshirish borasidagi raqobatni amalga oshirish uchun zarur bo'ladi.

Davlat xaridlari ko'p vazifali va kengaytirilgan funksionallikka ega bo'lib, u turli sohalarda, jumladan, kosmik, harbiy va fan va texnikaning boshqa sohalarida davlat ehtiyojlarini qondirishga mo'ljallanadi va o'z ta'sirini barcha mijozlarga qaratadi;

moliyalashtirish darajasi va hajmi [1]. Unga asosan, davlat, bozor, sanoat, xaridorlar, xaridlar ishtirokchilari mavjud ehtiyojlariga moslashtiriladi hamda mehnat, vaqt va moliyaviy resurslarni sarflagan holda belgilangan vazifalarni samarali bajarishga imkon beradi.

Davlat xaridlarining davlat kontrakt tizimini shakllantirish maqsadi davlatning o‘z resurslaridan samarali foydalanish va davlat xaridlarini amalga oshirish orqali davlat majburiyatlarini bajarishni ta’minlash bilan namoyon bo‘ladi. Xarid qilishda ishtirok etish uchun arizalarning tuzilishi va tarkibi xaridlar shakliga qarab farq qilishi mumkin [2].

Davlat xaridlarini shakllantirish jarayonida ijro etuvchi hokimiyat organlari, davlat muassasalari va jamiyatning real ehtiyojlari hisobga olinadi. Davlat xaridlari uzoq muddatli davlat maqsadli dasturlarini tashkil etish va amalga oshirish uchun qo‘llaniladi. Davlat buyurtmachilari hamda tadbirkorlik subyektlari turli qulayliklar yaratadi, ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash, davlat xaridlari jarayonlarini raqamlashtirish, davlat xaridlarini malakali kadrlar bilan ta’minlashga qaratilgan tizimli islohotlar amalga oshirib kelinmoqda [3].

Davlat xaridlari xaridlar va yetkazib berishlar soliq to‘lovchilar pullari bilan tavsiflanadi. Ushbu pullar budget va budgetdan tashqari fondlarda to‘planadi. Davlat xaridlari davlat organlari ehtiyojlarini o‘z ichiga oladi. Shuningdek, davlat subyektlari va hududlarining davlat hokimiyati organlari ehtiyojlarini bilan namoyon bo‘ladi va muhim xususiyatlari quyidagi yo‘nalishlardan iborat bo‘ladi:

- davlat xaridlari davlat muassasasining budget yoki budgetdan tashqari mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladi;
- maxsus xizmatlar va ularning maqsadi davlat va kishilar ehtiyojlarini qondirish bilan belgilanadi;
- davlat xaridlari boshqa kishilarga yangi vazifa va topshiriqlarini bajarishdan iborat bo‘ladi.

Shuningdek, davlat xaridlari tizimining maqsadi uning ishtirokchilari manfaatlarini qondirish bilan namoyon bo‘ladi. Bu esa sog‘lom raqobat muhiti va savdo bozorini ta’minlash, budgetni tejash, sifatli tovarlarni sotib olish, korrupsiyani bartaraf etish hamda sifatli tovarlarni maqbul narxga iste’mol qilish orqali jamoat ehtiyojlarini qondirish bilan

namoyon bo‘ladi. Davlat xaridlari samaradorligining asosiy maqsadi tovarlarni davlat tomonidan sotib olish, ishni bajarish yoki milliy maqsadlar uchun xizmatlarni olish paytida davlat budgeti va budgetdan tashqari mablag‘larni oqilona va maqsadli sarflash bilan belgilanadi. Umuman olganda, davlat xaridlari quyidagi funksiyalarga ega bo‘ladi:

- mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlashning muhim unsuri;
- davlat xaridlari tizimini rivojlantirish tovarlarga haqiqiy to‘lov qobiliyatiga ega talabni kengaytirishga imkon beradi;
- davlat xaridlarini joylashtirishning raqobat asoslari mahalliy ishlab chiqaruvchilar o‘rtasida sog‘lom raqobatni rivojlantirish sohasini kengaytirmoqda;
- davlat xaridlari orqali hukumat davlat ehtiyojlarini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan mahsulotlarning kelishini ta’minlaydi.

Fikrimizcha, davlat xaridlari tizimi - o‘zaro bog‘liq bosqichlarni amalga oshirish orqali tovarlar, ishlar va xizmatlarga milliy va xususiy ehtiyojlarni ta’minlashga qaratilgan turli xil huquqiy, tashkiliy va iqtisodiy chora-tadbirlar majmuidir. Bu orqali milliy va xususiy ehtiyojlarni ta’minlashni prognozlashtirish va rejalashtirish, jumladan davlat xaridlari uchun budget ajratmalarini rejalashtirish va aktivlarni samarali boshqarish, milliy va shahar ehtiyojlari uchun zarur tovarlar, ishlar va xizmatlarni xarid qilish hamda monitoring, nazorat va audit ishlari ta’milanadi. Unga asosan, davlat idoralari tovarlar, ishlar sotib olishlari yoki xizmatlar uchun pul to‘lashlari mumkin emas. Ularning ehtiyojlari qanday bo‘lishidan qat’iy nazar, ular pudratchi bilan shartnomaga tuza olmaydilar yoki onlayn-do‘konga buyurtma bera olmaydilar. Davlat xaridlari internetda amalga oshiriladi. Ya’ni, unga asosan, yetkazib beruvchiga qo‘yiladigan talablar bilan buyurtma elektron savdo maydonchasida joylashtiriladi. Bu holatda kim oshdi savdosida ishtirok etishni istagan har bir kishi arizalarni qoldiradi.

Shulardan kelib chiqib, davlat xaridlar tizimiga o‘tish jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat bo‘ladi:

- davlat budgeti, soliq, sud va boshqa ma’lumotlar bazalarini yagona axborot tizimi ma’lumotlari bilan yanada integratsiyalash;

- raqobatbardosh tartibda taqsimlanadigan barcha davlat va xususiy tovarlar va resurslarni qabul qiladigan yagona platformani yaratish;

- xaridlarning barcha shakllarini elektron shaklga va qog'ozsiz hujjat aylanishiga o'tkazish.

Xulosa shuki, davlat xaridlari tizimi davlat sektori, davlat va xususiy sektor e'tiborini ko'proq jalgan qiladi. Davlat xaridlari tizimini rivojlantirish uchun o'tmishdagi tajribalarni eslab qolish kerak. Har qanday soha mutaxassisi uchun o'z faoliyat sohasidagi rivojlanish davrlarini bilish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, davlat xaridlari buyurtmachi va o'rtaida yuzaga keladigan huquqiy munosabatlarning ma'lum bir tizimi shakli bo'lib hisoblanadi. Bu yetkazib beruvchi, davlat va kommunal ehtiyojlarni davlat budgeti mablag'lari hisobidan qondirish maqsadida ulardan samarali foydalanish maqsadida tovarlar, ishlar va xizmatlar sotib olayotganda amalga oshiriladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Система государственных закупок: теоретический и практический аспекты: монография. / Л.И.Юзович, Н.Ю.Исакова, Ю.В.Истомина и др.; под ред. Л.И.Юзович, Н.Ю.Исаковой. - Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2019. - с. 12.

2. Ревина С.Н. Управление закупками и заказами [Электронный ресурс]: учеб. пособие. / С.Н.Ревина, П.А.Паулов, Д.В.Борякин. - Самара: Изд-во Самар. гос. экон. ун-та, 2019. - с. 20.

3. Umarov J.T. Davlat xaridlari bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash masalalari. // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" (Economics and Innovative Technologies) ilmiy-elektron jurnali, 3/2023, may-iyun (№ 00065). - 249 b.